

**O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA MEVA-SABZAVOTCHILIK  
TARMOG‘INING RIVOJLANISH TARIXI VA HOZIRGI HOLATI**

**Xasanov Shaxboz Shodi o‘g‘li**

Taermiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

E-pochta: [xasanov2@terdpi.uz](mailto:xasanov2@terdpi.uz)

Telefon raqam: +998 (91) 574-48-41

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekistonda mustaqillik yillarida meva-sabzavotchilik tarmog‘ining rivojlanish tarixi, erishilgan yutuqlar, mavjud muammolar hamda istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlari ilmiy-tahliliy asosda yoritilgan. Tadqiqotda tarmoqning bozor iqtisodiyoti sharoitida shakllanish va rivojlanish jarayonlari, hududlar kesimida ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining dinamikasi, klaster tizimining joriy etilishi, mahsulotlarni qayta ishlash va eksport salohiyatini oshirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, meva-sabzavotchilik tarmog‘ining mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashdagi o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot viloyatlar statistika boshqarmalari ma‘lumotlari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy adabiyotlar asosida amalga oshirilgan.

**Kalit so‘zlar:** meva-sabzavotchilik, qishloq xo‘jaligi, agrar islohotlar, fermer xo‘jaliklari, klaster tizimi, hosildorlik, qayta ishlash sanoati, eksport salohiyati, oziq-ovqat xavfsizligi, O‘zbekiston Respublikasi.

**Abstract:** This article provides a scientific-analytical review of the history of development, achievements, existing problems and promising directions of the fruit and vegetable industry in Uzbekistan during the years of independence. The article discusses the transformation of the industry under market conditions, the dynamics of production indicators by regions, clustering processes, and issues of developing processing and export potential. The study is based on regional statistical data, official documents and scientific sources.

**Key words:** fruit and vegetable industry, agriculture, farming, cluster, yield, processing, export, food security, Uzbekistan.

Jahon qishloq xo‘jaligida meva-sabzavotchilik tarmog‘i global oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda dunyoda 828 million kishi ocharchilikdan aziyat chekkan.[1] Bu holat meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni jahon miqyosidagi ustuvor vazifalardan biriga aylantirmoqda. Mutaxassislar prognozlariga ko‘ra, 2030-yilga borib ham dunyo aholisining qariyb 8 foizi ochlik muammosiga duch kelishi mumkin. Shu bois meva-sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirish barcha mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston uchun ham strategik ahamiyat kasb etadi[2].

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng qishloq xo‘jaligi, xususan meva-sabzavotchilik tarmog‘ini isloh qilish va modernizatsiya etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda

O‘zbekiston – 2030 strategiyasi doirasida aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash, meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish, eksport salohiyatini yuksaltirish va qishloq xo‘jaligida klaster tizimini keng joriy etish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan[3].

Mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekistonda mustaqillik yillarida meva-sabzavotchilik tarmog‘ining rivojlanish bosqichlarini tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilish, sohada erishilgan yutuqlar va mavjud muammolarni ilmiy asosda baholash hamda uning istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat.

## **2. O‘zbekiston meva-sabzavotchiligining tarixiy rivojlanish bosqichlari**

O‘zbekistonda meva-sabzavotchilikning tarixi qadimiy davrlarga borib taqalsa-da, uning zamonaviy agrar tarmoq sifatida shakllanishi va rivojlanishi asosan mustaqillik yillari bilan chambarchas bog‘liq. Mustaqillik davrida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar ushbu tarmoqning tashkiliy-huquqiy asoslarini tubdan o‘zgartirib, uni bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda rivojlantirish imkonini yaratdi. Mazkur jarayonni shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqich (1991–2000-yillar) – bozor munosabatlariga o‘tish davri. Ushbu davrda sobiq ittifoqdan meros bo‘lib qolgan kolxoz va sovxoz tizimlari bosqichma-bosqich tugatildi hamda qishloq xo‘jaligida mulkchilikning yangi shakllari vujudga kela boshladi. Fermer va dehqon xo‘jaliklarini tashkil etish uchun huquqiy asoslar yaratildi. Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichida ishlab chiqarish hajmlarining ma‘lum darajada qisqarishi kuzatilgan bo‘lsa-da, keyinchalik bozor mexanizmlarining joriy etilishi natijasida qishloq xo‘jaligi subyektlarining iqtisodiy mustaqilligi oshdi. Davlat buyurtmasi tizimining bosqichma-bosqich qisqartirilishi fermerlarga bozor talabidan kelib chiqib mahsulot yetishtirish imkoniyatini berdi.

Ikkinchi bosqich (2001–2016-yillar) – tarkibiy o‘zgarishlar va barqaror o‘sish davri. Mazkur bosqichda fermer xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligining asosiy ishlab chiqaruvchi subyektiga aylandi. Davlat tomonidan agrar sohani qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari takomillashtirildi, sug‘orish tizimlarini modernizatsiya qilish va meliorativ tadbirlarni amalga oshirish ishlari jadallashtirildi. Natijada meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish hajmlarida sezilarli o‘sish kuzatildi. Jumladan, Namangan viloyatida 2012-yilda sabzavot yetishtirish hajmi 2010-yilga nisbatan 20,5 foizga oshgan bo‘lsa, meva yetishtirish hajmi 157,9 ming tonnani tashkil etgan[4].

Ushbu davrda bog‘dorchilik va sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarining soni ham ortib bordi.

Uchinchi bosqich (2017-yildan hozirgi davrgacha) – modernizatsiya va klasterlashtirish bosqichi. 2017-yildan boshlab mamlakatda keng ko‘lamli iqtisodiy va institutsional islohotlar amalga oshirildi. Qishloq xo‘jaligida klaster tizimini joriy etish, zamonaviy agrotexnologiyalarni qo‘llash, eksportbop mahsulotlar yetishtirish va qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish ustuvor vazifalarga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF–5853-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi”[5] doirasida meva-sabzavotchilik tarmog‘ini ixtisoslashtirish, mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish, eksport geografiasini kengaytirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berildi.

## **3. Meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari tahlili**

**Namangan viloyati misolida tahlil.** Namangan viloyati meva va sabzavot mahsulotlari yetishtirish bo‘yicha respublikaning yetakchi hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda 2013-yilda jami 25 298

gektar maydonda mevali bog'lar va 12 992 gektar maydonda sabzavot ekinlari yetishtirilgan. Viloyatdagi bog'lar urug'li mevalar (olma, nok, behi, do'lana), danakli mevalar (gilos, olcha, o'rik, shaftoli), rezavor mevalar (uzum, smorodina, krijovnik) hamda yong'oqli mevalar (yong'oq, bodom, pista va yer yong'oq) yetishtirishga ixtisoslashgan[6].

2010–2012-yillar davomida viloyat bo'yicha meva yetishtirish hajmlarining barqaror o'sishi kuzatilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, deyarli barcha tuman va shaharlarda meva yetishtirish hajmi oshgan. Faqat Uchqo'rg'on tumanida 2012-yilda 2010-yilga nisbatan 11,6 foizlik pasayish qayd etilgan bo'lib, bu holat asosan mevali bog'lar maydonining qisqarishi bilan izohlanadi[7].

Sabzavot yetishtirish bo'yicha ham ijobiy o'sish dinamikasi kuzatilgan. Xususan, 2012-yilda viloyatda 529,5 ming tonna sabzavot yetishtirilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2010-yilga nisbatan 20,5 foizga yuqori bo'lgan. Aholi jon boshiga hisoblaganda meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi mos ravishda 22,1 va 17,7 foizga oshgan[8].

Surxondaryo viloyati misolida tahlil. Surxondaryo viloyati respublikaning janubiy hududida joylashgan bo'lib, uning qulay tabiiy-iqlim sharoiti meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Viloyatda 318,2 ming gektar sug'oriladigan yer maydonlari mavjud bo'lib, bu respublikadagi jami sug'oriladigan yerlarning 7,4 foizini tashkil etadi[9].

So'nggi yillarda viloyatda meva-sabzavotchilik klasterlari faoliyatini rivojlantirish va ularning samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, klasterlarning 60 foizi yuqori integral koeffitsiyentga ega guruhga mansub bo'lib, ularda zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalanish, mahsulot sifatini saqlash hamda eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ijobiy natijalar qayd etilgan[10].

Respublika miqyosida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari ham izchil o'sib bormoqda. Jumladan, 2023-yilda 7 990,5 ming tonna don va dukkakli don ekinlari, 3 443,2 ming tonna kartoshka, 11 162,9 ming tonna sabzavot, 2 999,3 ming tonna meva va rezavor mahsulotlar hamda 1 760,6 ming tonna uzum yetishtirilgan[11]. Ushbu ko'rsatkichlar mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan bir qatorda, meva-sabzavot mahsulotlari eksportini kengaytirish uchun ham mustahkam zamin yaratmoqda.

#### **4. Meva-sabzavotchilik bozori: talab va taklif munosabatlari**

Meva-sabzavot mahsulotlari bozorining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ijtimoiy, iqtisodiy, hududiy, tashkiliy, ekologik va boshqa guruhlarga ajratish mumkin[12]. Mazkur omillar o'zaro uzviy bog'liq holda bozor kon'yunkturasining shakllanishiga hamda tarmoqning rivojlanish sur'atlariga ta'sir ko'rsatadi. Talabni shakllantiruvchi asosiy omillar qatoriga aholi daromadlarining o'sishi, demografik jarayonlar, iste'mol madaniyatining takomillashuvi va sog'lom ovqatlanishga bo'lgan ehtiyojning ortishi kiradi. Tadqiqotlarga ko'ra, Namangan viloyatida aholini meva-sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlashning fiziologik me'yorlari bo'yicha yillik ehtiyoj 138,7 ming tonna meva, 277,8 ming tonna sabzavot, 47,5 ming tonna poliz mahsulotlari hamda 34,2 ming tonna uzumni tashkil etadi[13].

Amaldagi ishlab chiqarish hajmlari mazkur ehtiyojdan sezilarli darajada yuqori bo'lib, meva mahsulotlari bo'yicha 43,3 ming tonna, sabzavot mahsulotlari bo'yicha esa 296,7 ming tonna ortiqcha mahsulot yetishtirilmoqda. Bu esa ichki bozor ehtiyojlarini to'liq qondirish bilan birga, eksport hajmlarini kengaytirish uchun ham salmoqli imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

#### **5. Qayta ishlash sanoati va klaster tizimini rivojlantirish**

Meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini rivojlantirish O'zbekiston agrar iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash nafaqat mahsulotlarning saqlanish muddatini uzaytirish, balki ularning qo'shimcha qiymatini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda respublikada meva, sabzavot va uzum mahsulotlari yetishtirish hajmining ortib borishi qayta ishlash sanoatini rivojlantirish uchun zarur xomashyo bazasini yaratmoqda. Shunga qaramay, ayrim turdagi mahsulotlarning muayyan qismi hanuzgacha qayta ishlanmasdan ichki bozorda yoki xomashyo ko'rinishida realizatsiya qilinmoqda. Meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash tizimini takomillashtirish maqsadida mamlakatda yirik ixtisoslashgan korxonalar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Xususan, "Uzmevasabzavotuzumsanoatholding" tizimiga kiruvchi korxonalar qayta ishlash quvvatlaridan samarali foydalanish, tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda eksportbop mahsulotlar turini kengaytirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Mazkur yo'nalishdagi chora-tadbirlar mahsulot isrofgarchiligini kamaytirish va qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Klasterlashtirish jarayoni meva-sabzavotchilik tarmog'ining eng istiqbolli rivojlanish yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Klaster tizimi mahsulot yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va realizatsiya qilish bosqichlarini yagona ishlab chiqarish zanjiriga birlashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Surxondaryo viloyatida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, meva-sabzavotchilik klasterlari faoliyatini baholash mezonlari ishlab chiqilgan bo'lib, baholash natijalarida klasterlarning 60 foizi yuqori integral koeffitsiyentli guruhga, 40 foizi esa o'rta va quyi samaradorlik guruhlariga mansubligi aniqlangan. Mazkur holat ayrim klasterlarda zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv usullarini kengroq joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Bog'dorchilikni intensivlashtirish ham tarmoq samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Namangan viloyatida olib borilgan tadqiqotlar intensiv bog'larning iqtisodiy samaradorligi an'anaviy bog'larga nisbatan 4-5 barobar yuqori ekanligini ko'rsatadi. Biroq intensiv bog'lar ulushi hali ham umumiy bog' maydonlarida nisbatan past darajada saqlanib qolmoqda. Shu sababli zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, yuqori hosildor va eksportbop navlarni kengaytirish hamda tomchilatib sug'orish tizimlarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Qayta ishlangan mahsulotlar assortimentini kengaytirish ham tarmoq raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash natijasida konsentrlangan va tabiiy sharbatlar, meva hamda sabzavot pyuresi va pastalari, quritilgan mahsulotlar, konserva mahsulotlari, murabbo, jem, marinad va tuzlamalar ishlab chiqarilmoqda. Bozorda, ayniqsa, olma, uzum, behi va sitrus mevalaridan tayyorlangan sharbatlar, shuningdek, pomidor va sabzi asosidagi mahsulotlarga talab yuqori bo'lib qolmoqda.

#### **6. Tarmoqning asosiy muammolari va ularni hal etish yo'llari**

O'zbekistonda meva-sabzavotchilik tarmog'ining rivojlanishi davomida qator muammolar mavjudligi kuzatilmoqda. Ushbu muammolarni shartli ravishda infratuzilmaviy, ilmiy-texnik hamda bozor-logistika muammolariga ajratish mumkin.

#### ***Infratuzilmaviy muammolar.***

Meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi tarmoqning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Sovutkichli omborxonalar va zamonaviy saqlash majmualarining yetishmasligi natijasida hosil yig'im-terimi mavsumida mahsulot taklifining keskin ortishi narxlarning pasayishiga hamda mahsulot isrofining ko'payishiga olib kelmoqda. Shuningdek, yoqilg'i-moylash materiallari, transport xizmatlari va boshqa moddiy resurslar narxlarining yuqoriligi mahsulotlarni tayyorlash, saqlash va tashish xarajatlarining oshishiga sabab bo'lmoqda.

#### ***Ilmiy-texnik muammolar.***

Tarmoqda intensiv bog'dorchilik texnologiyalarining yetarli darajada ommalashmaganligi, yuqori hosildor navlar va gibrid urug'lar bilan ta'minlash tizimining takomillashmaganligi, zamonaviy agrotexnologiyalardan foydalanish darajasining nisbatan pastligi hosildorlik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, klasterlar o'rtasidagi texnologik va innovatsion rivojlanish darajasidagi tafovutlar ham tarmoq samaradorligini oshirishga to'sqinlik qilayotgan omillardan biri hisoblanadi.

#### ***Bozor va logistika muammolari.***

Meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va realizatsiya qilish jarayonlari o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyaning yetarli darajada shakllanmaganligi ham dolzarb muammolardan biridir. Xususan, kontraktatsiya tizimining takomillashmaganligi, logistika markazlari tarmog'ining yetarli rivojlanmaganligi hamda eksport bozorlariga chiqish imkoniyatlarining cheklanganligi tarmoqning raqobatbardoshligini pasaytirmoqda.

#### ***Tavsiyalar.***

Meva-sabzavotchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. intensiv bog'dorchilikni rivojlantirish uchun davlat subsidiyalari va imtiyozli kreditlar tizimini takomillashtirish;
2. zamonaviy saqlash omborlari va sovuq zanjir infratuzilmasini kengaytirish hamda xususiy investitsiyalarni jalb etish;
3. klasterlarning o'rta va quyi samaradorlik guruhlariga texnologik hamda boshqaruv ko'magini kuchaytirish;
4. qayta ishlash sanoati uchun sanoatbop va eksportbop navlarni ko'paytirishga alohida e'tibor qaratish;
5. eksport geografiyasini kengaytirish va yangi tashqi bozorlarni o'zlashtirish;
6. fermer xo'jaliklari va klasterlar faoliyatiga raqamli texnologiyalar hamda agrar axborot tizimlarini keng joriy etish.

#### **7. Tarmoqning rivojlanish istiqbollari**

O'zbekistonda meva-sabzavotchilik tarmog'ining istiqboldagi rivojlanishi mamlakatda amalga oshirilayotgan agrar islohotlar samaradorligi bilan chambarchas bog'liq. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan vazifalar, jumladan sug'oriladigan yer resurslaridan oqilona foydalanish, hosildorlik va rentabellik darajasini oshirish hamda zamonaviy agrotexnologiyalarni keng joriy etish meva-sabzavotchilik tarmog'ining barqaror rivojlanishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda[14].

Surxondaryo viloyatida olib borilgan prognoz tadqiqotlari meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarining kelgusida ham o'sib borishini ko'rsatmoqda. O'rta muddatli prognozlarga

ko'ra, 2028-yilgacha bo'lgan davrda viloyat agrar sektorida yalpi hududiy mahsulot hajmining izchil ortishi kutilmoqda. Xususan, 2024-yilda ushbu ko'rsatkichning 20 911,5 mlrd so'mga yetishi va 2023-yilga nisbatan qariyb 9 foizga o'sishi prognoz qilingan.

Ekspert salohiyatini rivojlantirish tarmoqning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ayrim hududlarda meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ichki iste'mol ehtiyojidan sezilarli darajada yuqori bo'lib, bu tashqi bozorlarga mahsulot yetkazib berish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va saqlash tizimlarini takomillashtirish orqali mahsulotlarning qo'shimcha qiymatini oshirish imkoniyatlari ham mavjud.

Raqamli texnologiyalar va "aqli qishloq xo'jaligi" (Smart Agriculture) yondashuvlarini joriy etish tarmoq rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, masofadan monitoring tizimlari, geoinformatsion texnologiyalar va raqamli boshqaruv platformalaridan foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda mahsulot tannarxini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, qishloq xo'jaligini raqamlashtirish bo'yicha qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar tarmoqning innovatsion rivojlanishi uchun muhim huquqiy asos yaratmoqda.

#### **XULOSA**

O'zbekistonda mustaqillik yillarida meva-sabzavotchilik tarmog'i ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ulkan o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Kolxoz tizimidan bozor munosabatlariga o'tish, fermer xo'jaliklarining shakllanishi hamda klasterlashtirish jarayonlarining boshlanishi ushbu tarmoqning sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishini ta'minladi. Viloyatlar bo'yicha o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, meva-sabzavotchilik ko'rsatkichlari yildan-yilga o'sib bormoqda. Xususan, Namangan viloyatida 2010–2012-yillarda sabzavot yetishtirish hajmi 20,5 foizga oshgan. Surxondaryo viloyatida esa klasterlashtirish jarayonlari ijobiy natijalarga olib kelmoqda: klasterlarning 60 foizi yuqori samaradorlik ko'rsatkichlariga ega ekanligi aniqlangan. Shunga qaramasdan, tarmoqda hali ham hal etilmagan muammolar mavjud bo'lib, ular qatoriga intensiv bog'dorchilik ulushining pastligi, saqlash infratuzilmasining yetarli emasligi hamda qayta ishlash quvvatlaridan to'liq foydalanilmasligi kiradi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda xalqaro tajribani maqsadli qo'llash zarur. Umuman olganda, O'zbekiston meva-sabzavotchilik tarmog'ining kelajagi istiqbolli hisoblanadi. Mavjud tabiiy-iqlim sharoitlar, rivojlanib borayotgan klaster tizimi hamda davlat qo'llab-quvvatlash siyosati ushbu tarmoqni yanada rivojlantirish va uning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO). FAOSTAT, 2023. - URL: <https://www.fao.org/faostat>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-6-sonli «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-sonli «Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. - Toshkent, 2023.

6. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. - Namangan, 2013.
7. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. - Termiz, 2024.
8. Xo'jayev A. S. Meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari faoliyatining iqtisodiy-statistik tahlili: avtoreferat. - Toshkent, 2019.
9. Muxitdinova U. S. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida meva-sabzavotchilik mahsulotlari bozorini rivojlantirish yo'nalishlari: dissertatsiya. - Toshkent, 2001.
10. Abdug'aniyev O. A. Iste'mol savatiga kiruvchi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning ekonometrik modellari: DSc dissertatsiya. - Urganch, 2022.
11. Berkinov B. B. Ekonometrika: o'quv qo'llanma. - Toshkent, 2015.
12. Altiyev A. S., Ochilov I. S. Sug'oriladigan yerlar ekologik holatini yaxshilashning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda jahon tajribalari // Ekonomika i sotsium. - 2021. - №6(85).
13. Singbo A. Analyzing Efficiency of Vegetable Production in Benin. - Wageningen, 2012.
14. Porter M. E., Millar V. E. How Information Gives You Competitive Advantage // Harvard Business Review. - 2018.